

KORRUPSIYA UMR ZAVOLI

*Ravshanbekov Jaxongir Dilmurod o'g'li**IIV Akademiyasi 3-bosqich 328-guruh kursanti*

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali Ichki ishlar organlari tomonidan korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashishni tashkil qilish faoliyatining asosiy jihatlari, bu borada aholi keng ommasini Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatida ishtirokni ta'minlashdagi faolligini oshirish uchun zarur bilimlarni shakllantirish maqsadidagi muammolar hamda ularning yechimiga oid fikrlar keltirib o'tilgan. Mavzuni yoritish davomida Korrupsiya va unga qarshi kurashishga oid atamalar lug'ati, ilmiy-amaliy qo'llanmalardan unumli foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, tashkil qilish, qarshi kurashish, bilimlarni shakllantirish, hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Аннотация: В данной статье представлены основные аспекты деятельности органов внутренних дел по организации противодействия коррупционным преступлениям, проблемы формирования знаний, необходимых для повышения активности широких масс населения в обеспечении участия в антикоррупционной деятельности, а также мнения по их решению. При освещении темы плодотворно использовался словарь терминов, научно-практических пособий, касающихся коррупции и борьбы с ней.

Ключевые слова: коррупция, организация, противодействие, формирование знаний, налаживание сотрудничества.

Annotation: Through this article, the main aspects of the activities of the internal affairs bodies to organize the fight against corruption-related crimes, the problems aimed at building the necessary knowledge to increase the activity of the vast majority of the population in ensuring participation in anti-corruption activities, as well as opinions on their solution were cited. During the coverage of the topic, a glossary of terms related to corruption and the fight against it, Scientific and practical applications were used most efficiently.

Keywords: corruption, organization, Fight Against, knowledge formation, cooperation



KIRISH

“Adolatsiz, mehnatsiz daromad hech Qachon insonga obro’ keltirmaydi”
O’zbekiston Respublikasi Prezidenti:
Shavkat Mirziyoyev

Bizga ma’lumki, O’zbekiston dunyoning 50 ta iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlari qatoridan o’rin egallash uchun azmu shijoat va qa’tiyat bilan intilmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an’analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat’iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakkantirish yo’lidan bormoqdamiz.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabussi va rahnamoligida mamlakatimiz bosib o’tgan taraqqiyot yo’li har tomonlama tahlil qilindi. Davlatimizni barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlanirish, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish maqsadida, **2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlanishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi** ishlab chiqildi.¹

Strategiya – bu yangilanish jarayonlarining haqiqiy harakatlar dasturidir. Bu hujjat hozirgi vaqtida hayotga izchil joriy etilmoqda.

2017 yilning 19 sentabrida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72 sessiyasidagi tarixiy nutqida: “Harakatlar strategiyasining mazmun – mohiyati Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan to’la hamohang ekanini ta’kidlashni istardim”² deb ta’kidlagan edilar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jahon tajribasi shuni ko’rsatadiki, korrupsiyaga qarshi keskin choralar ko’rilmasligi uning jinoiy, iqtisodiy va ijtimoy muammodan siyosiy muammoga aylanishiga, mamlakat konstitutsiyaviy tuzumining asoslariga putur yetkazuvchi milliy ofat darajasiga chiqishiga sabab bo’lishi mumkin. Hamda u milliy qadriyatlarimiz odob axloq qoidalarimiz va yosh o’sib kelayotgan farzandlarning xulq-atvoriga ularni ongiga jiddiy salbiy ko’rsatadi.

Bugunga kelib dunyo mamlakatlarida korrupsiyaning miqyosi va darajasi 10 foizdan 90 foizgacha oshgani kuzatilmoqda. Masalan, **korrupsiya Daniya, Finlandiya, Singapur, Yangi Zelandiyada 10 foizni, Somali, Sudan kabi davlatlarda esa 90 foizni tashkil etmoqda.**

¹ 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlanishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi

² O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so’zladi.



Xususan, 1994 yil 22 sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida mazkur qilmishga qarshi kurashish maqsadida bunday harakatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. Ushbu kodeksining 210, 211, 212-moddalarida "Pora olish", "Pora berish", "Pora olish-berishda vositachilik qilish" deb nomlanib, u bevosita yoshlarimiz va kelajagimiz poydevoridir. Bunday jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan edi.

Poraxo'rlik munosabatlarini uch subyektli deb aytish mumkin. Bular: pora oluvchilar, pora beruvchilar va ular o'rtasidagi vositachilar. **Pora oluvchilar** ayrim davlat amaldorlari bo'lsa, uni **beruvchilar** amaldorlar marhamatiga muhtojlardir. **Vositachilik** vazifasini esa ayrim shaxslar va yashirin tashkilotlar amalga oshiradi.

2008 yilda O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003 yil 31 oktabrda qabul qilingan qilingan Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasini ratifikatsiya qildi hamda davlat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha aniq chora tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirishga kirishildi. 2010 yilda O'zbekiston Iqtisodiy Hamkorlik 8 va rivojlanish tashkiloti korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'inining Istanbul harakat dasturiga qo'shildi. Ayniqsa, 2017 yil 3 yanvardagi O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi Qonunni qabul qilingani ushbu yo'naliishdagi ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari hamda bubaradagi davlat siyosatining muhim yo'naliishlari mustahkamlandi.³

Korrupsiyaga qarshi kurashish mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy-huquqiy islohotlarning asosiy yo'naliishlaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev:

"Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak"⁴, deb haqli ravishda ta'kidlaydi.

Darvoqe, islohotlarning yana bir ko'rinishlardan biri bu O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishdagi davlat organi agentligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 29-iyunidagi PQ-4761-sun qaroriga asosan tashkil etildi.

Joriy yilning 28 yanvarida e'lon qilingan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham korrupsiyaga qarshi kurashish ustuvor vazifa etib belgilandi. Xususan, Taraqqiyot strategiyasida Davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan Davlat nazoratini bartaraf etish,

³ Коррупцияга қарши курашиш. Дарслик. // Масъул мұхаррір: А.Ш. Бекмуродов: – Тошкент: "Akademiya", 2022.

⁴ 1 Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, 2020 йил 24 январь.// Манба: www.president.uz/uz/lists/view/3324

mazkur jarayonga keng jamoatchilkni jalg qilish (4-maqсад), korrupsiyaga moyil soh ava tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish (84-maqсад) nazarda tutildi⁵. Halollik, o'z ma'nosiga ko'ra, to'g'rillik,adolat, sofdillik, samimiylilik, iymon so'zlari bilan ham uyg'undir.

Korrupsiya-global hodisa, undan Zarar ko'rmagan mamlakat yo'q, lekin korrupsiyalashuv darajasi xilma xilligi bilan boshqa turdag'i qilmishlardan farqliroqdir.

BMTning sobiq huquqiy maslahatchisi Xans Korell korrupsiya-universal hodisa, ammo u rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ayniqsa halokatlidir, deb hisoblaydi: "Korrupsiya huquqiy jamiyat qurish, investitsiyalar jalg qilish va aholining, ayniqsa uning kambag'al qatlamlarining farovonligini oshirish borasidagi barcha harakatlarni yo'qqa chiqaradi" deya ta'kidlagan.

Pora olish ya'ni davlat organi, davlat ishtirokida tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi. O'zR JKning 210-moddasida aynan shu pora olish kabi g'arazli niyatga nisbatan tegishli jinoiy javobgarlik belgilangan.

Pora berish ya'ni davlat organi, davlat ishtirokida tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsiga mazkur mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora bergen shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib bevosita yoki vositachi orqali moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish O'zR JKning 211-moddasida aynan shu Pora berish kabi g'arazli niyatga nisbatan tegishli jinoiy javobgarlik belgilangan.

Pora olish-berishda vositachilik qilish ya'ni berishda vositachilik qilish, ya'ni pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek manfaatdor shaxslarning topshiriq bilan porani berishi bevosita O'zR JKning 212-moddasida aynan shu Pora olish-berishda vositachilik qilish kabi g'arazli niyatga nisbatan tegishli jinoiy javobgarlik belgilangan.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida

XULOSA

Umuman olganda, korrupsiyallashganlik va daromadlar darajasining o'zaro aloqadorligi quyidagi holatlar bilan bo'g'liq:

➤ Katta daromadlar davlat xizmatchilarini ijtimoiy rag'batlantirish innovatsion tizimini tashkil etish, korrupsiyani kamaytiradi: aftidan, farovonlikning o'sishi noqonuniy olinadigan pullarga intilishni kamaytiradi.

➤ Bunda daromadlar o'sgan sayin korrupsiya bilan bo'g'liq qilmishlar uchun jazolar ham kuchayadi hamda qonuniy jazo choralarni takomillashtirish.

➤ Iqtisodiy rivojlanish ham demokratiyani rag'batlantirib, korrupsiyaning kamayishiga sharoit yaratadi. Bundan tashqari, taraqqiyot ta'lim darajasini oshiradi, bu esa fuqaroni o'z harakatlarining oqibatlariga e'tiborliroq bo'lishga majbur etadi.

Jahon tajribasiga ko'ra korrupsiyani yuzaga keltiruvchi uchta asosiy omil borki:

1. bu jon boshiga hisoblanadigan daromadlarning ozligi;
2. qon-qarindoshlik va tanish bilishlik aloqalarining kuchli bo'lishi;
3. demokratik institutlarning kuchsizligidir.

Demokratik institutlar ishini faollashtirish orqali korrupsiya ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish talab qilinadi, chunki doimo "Korrupsiya-bu yomon illat" shiori ostida tushuntirishlar olib borish lozim, profilaktika inspektori tomonidan profilaktik suhbatlar o'tkazib turish hamda korrupsiya bilan bogliq jinoyatlarga taklif qilsa, mabodo zudlik bilan xabar bermaslik salbiy holatlarga olib kelishi mumkinligi to'g'risida yetkazish!!!

O'zbekiston Respublikasi qonun normalarini ishlab chiqib, takomillashtirib bir yaxlitga tizimga keltirish zarur...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-sonli farmoni;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zлади.;
3. Коррупцияга қарши курашиш. Дарслик. // Масъул мухаррир: А.Ш. Бекмуродов: – Тошкент: "Akademiya", 2022.;
4. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, 2020 йил 24 январь.// Манба: www.president.uz/uz/lists/view/3324;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.